

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

STRUKTURAL TAHLIL: BADIY ASARDAN BADIY MATN SARI

Mohinur Farmonova

BuxDU tayanch doktoranti

(farmonovamohinur91@gmail.com)

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining keng ko‘lamliligi bilan millat va yurtning yorqin kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ilg‘or islohotlarning asosiy qismi ilm-fanga qaratilgani tahsinga loyiq, negaki, ilmdagi har qanday yuksalish mamlakat kelajagiga daxldordir. Ilmga ochilgan istiqbolli keng yo‘l sabab, xususan, o‘zbek adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andazasidagi zamonaviy metod va uslublarning kirib kelishi ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy adabiyotimizda ham turli yangicha ilmiy konsepsiyalarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida ham “struktura”, “struktural tahlil”, “badiiy matn” kabi badiiy asarni o‘zgacha tadqiq manbai sifatida baholovchi tushunchalar ancha sezilarli miqdorda qo‘llanilmoqda. Ammo hali bu atamalarning barcha adabiyot ahli uchun tushunarli emasligi bu borada ko‘proq ilmiy izlanish va tadqiqotlarga muhtojligimizni bildiradi. Holbuki, strukturalizm jahon ilm-fani sahifalarida o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan edi, bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlar ilmiy tadqiqotlarda strukturalizmdan keyin, ayni uning ta’siri bilan yuzaga kelgan poststrukturalizm metodlaridan foydalanmoqda. Ayni shu sababning o‘zi ham struktural tadqiq masalalarini bor mohiyati bo‘yicha o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish zaruratini oshirib, adabiyotshunoslarga bir qator muhim vazifalar mas’uliyatini yuklaydi. Bu mas’uliyatni esa ilm-fan oldidagi burchimiz deb bilishimiz shart. Zero, zabardast adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov quyidagi mulohazalarda batamom haq edi: “Bugungi kunda adabiyotshunoslik va tanqidchilikda struktural analiz, matnni asos qilib olgan holda asarni analiz qilish, qiyosiy tahlil kabi shakllar va usullardan keng foydalanishga intilish bor. Biz bu borada xorijiy tajribalarga tayanmog‘imiz kerak” [6;231].

O‘zbek adabiyotshunosligida strukturalizm va struktural tadqiq borasidagi ilk ilmiy izlanishlar 2000-yillar boshlariga to‘g‘ri keladi. Xususan, adabiyotshunos olimlar A.Rasulov, Q.Yo‘ldoshev, S.Meliyev, M.Xolbekov, G‘.Murodovlarning bir qator maqola va risolalarida strukturalizmning mohiyati, tadqiq usullari samaradorligi borasida fikrlar bildirilgan [1,2,3,4,5].

Keyingi yillarda badiiy matnni struktural tahlil qilish borasidagi ishlarning ancha ko‘zga tashlanib qolganligi milliy adabiyotimizning zamonaviy yutug‘idir.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Negaki, struktural tahlil adabiyotshunosdan zargarona nigoh, mohirona tadqiqni talab qiladi. Bu esa milliy adabiyotimizda barkamol asarlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xo‘sh, dunyo adabiyotshunosligini qisqa muddat ichida zabt qilgan strukturalizmning asosiy va voz kechilmas tamoyillari nima? Biz bu tamoyillarni yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin deb bildik:

1) borliqdagi barcha mavjudot ma’lum bir strukturaning o‘ziga xos yig‘indisidir; bu aksiomadan hech narsa soqit emas;

2) dunyodagi eng mukammal struktura inson ongi va tafakkuridir; til esa “tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuasi” (F.de Sossyur) sifatida strukturaning strukturasi o‘laroq maydonga keladi;

3) til va tafakkur dualizmi asosida yuzaga chiqqan badiiy matn bir butunlik, yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi;

4) badiiy matn mavjud tabiiy til (asar tili: o‘zbek, turk, xitoy, rus, ingliz, fransuz kabi) ustiga qurilgan, yozuvchi tomonidan modellashtirilgan “ikkilamchi model til” ni ifodalaydi;

5) “muallifning o‘limi” konsepsiyasi, ya’ni matn muallifga bo‘ysunmaydi, muallif matnning egasi bo‘la olmaydi, matn bor go‘zalligi bilan faqat o‘quvchiga tegishlidir.

Strukturalizm yuqoridagi tamoyillar bilan bugungi kunda inson shaxsiyatini ildiz-ildizi bilan yoritib beradigan yo‘nalish sifatida alohida diqqatga molikdir. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor deyilganidek, bu metodning ayrim kamchiliklari ham mavjudki, ulardan ko‘z yumish imkonsiz. Birinchidan, strukturalistlar badiiy matnda muallifni tan olmaydilar, bu esa o‘z navbatida asarni yozuvchi shaxsiyati, psixologiyasi bilan bog‘lab tahlil qiluvchi psixoanaliz, fenomenologiya kabi metodlarning adabiyotshunoslik sahnasidan tushishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, struktural tadqiq mutlaqo sinxron yondashuvda amalga oshiriladi, shu sababli adabiyot tarixi, madaniy-tarixiy kolorit, asarning yaralish tarixi kabi muhim jihatlar tadqiq doirasidan chiqarib yuboriladi. Strukturalizmning “ota”si R.Bart o‘zining “Muallifning o‘limi”, “S/Z” va “Yozuvning nol darajasi” maqolalarida yuqorida keltirilgan kamchiliklarni yangi metodning o‘ziga xos yutuqlari sifatida talqin qildi [7]. Turli-tuman fikrlar, afzalliklar va kamchiliklarga qaramay strukturalizm keng maydon bo‘ylab jadal rivojlanishda davom etdi va bu tadrijiy rivojlanish tarafdorlar va tanqidchilarning munozara-yu muhokamalarida

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ba’zi xalqlar adabiyotshunosliklarida strukturalizm, ba’zilarida esa poststrukturalizm sifatida hamon davom etmoqda.

Struktural adabiyotshunoslikning tadqiq manbasi yaxlit tarkibning noyob namunasi bo‘lgan badiiy matndir. Savol tug‘iladi: badiiy matnning noyoblighi nimada? Axir, deylik, o‘zbek adabiyotidagi barcha asarlar o‘zbek tilida yozilgan; barida ayni alifbo; barida ayni leksika; barida ayni grammatika. Ha, matnning noyoblighi ham ayni shunda – odatiy elementlardan tashkil topgan noodatiy strukturada. Yanayam boshqacharoq aytadigan bo‘lsak, badiiy matn an’anaviy materiallarning noan’anaviy, takrorlanmas modellashtirilgan namunasidir. Struktural tahlil tushunchasi bugungi kun adabiyotshunosi, kitobxon, umuman olganda, badiiyat ixlosmandi uchun ikki hodisani bir-biridan chuqur farqlashi lozimligini uqtiradi: **badiiy asar** va **badiiy matn**. Ayni shu tafovutdan struktural tadqiq boshlanadi, an’anaviy tahlil o‘z o‘rnini tadrijiy yangi tafakkur oqimiga bo‘shatib beradi. Shu o‘rinda biz badiiy asar va badiiy matni quyidagi ketma-ketliklar asosida farqlab, izoh berishga harakat qilamiz:

1. Badiiy asar moddiy (materialistik) xarakterga ega : uni yozuv orqali ko‘rish, audiofayl holatida tinglash, ushlab, sotib olish yoki kitob javoniga qo‘yish mumkin. Badiiy matn esa moddiylikdan xoli bo‘lgan mavhum (idealistik) hodisadir, u yozuvda emas, kitobxonning tafakkur olamida paydo bo‘ladi va shu olamda yashaydi.

2. Badiiy asar o‘z muallifiga ega bo‘ladi. Muallifning “men”i tahlil jarayoniga kirib kelaveradi, asarning yutuq va kamchiliklari muallifga bog‘liq holda baholanadi. Tahlil ham bevosita muallif shaxsiyati, biografiyasi va ijod kutubxonasiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Badiiy matn esa muallifni tan olmaydi va unga bo‘ysunmaydi. Matn muallif hukmi ostidan chiqib ketadi, muallif unga hukmronlik qilolmaydi. Muallifga faqat obraz sifatida qaraladi, tahlil jarayonida ham muallif obrazi tarzida yondashiladi. Bu o‘rinda quyidagi iqtibosni keltirish g‘oyat o‘rinlidir: “Kapaktaki yazar adının ne önemi var?...Yazar kitapların geldiği görünmez nokta olmalı” [10;102]. (Muqovadagi muallif nomining nima ahamiyati bor?...Muallif kitoblarni dunyoga keltiruvchi ko‘rinmas nuqta bo‘lmog‘i lozim – *tarjima bizniki*). Matnning muallifsizlashishi esa o‘z navbatida uning cheksizligiga sabab bo‘ladi.

3. Badiiy asar o‘ziga xos janriy tuzilish, bo‘linishga (band, misra, bayt, bob...) ega bo‘ladi, uni ayni shular orqali alohida tahlilga tortsa bo‘ladi. Badiiy matn esa yaxlit bir struktura – tizimdir. Undagi barcha bo‘laklar shu strukturaning qismi – uzvi sanaladi va har bir uzv boshqa uzvlar bilan chambarchas bog‘lanadi. Va ayni shu vobastalikda tahlilga tortiladi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Badiiy asar muayyan chegaraga ega, aniq janriy o‘lchamlarga bo‘ysunadi (masalan, tuyuq – albatta, 4 misra bo‘lishi shart yoki sonet 2 ta to‘rtlik va 2 ta uch misralik bandlar bilan chegaralanadi; ular ham shaklan, ham mazmunan ayni shu hududdagina mavjud bo‘ladi). Badiiy matn esa hech qanday chegarani tan olmaydi, u har qanday o‘lcham va hududdan tashqarida. U cheksizlikka intiladi va har tomonlama – bo‘yiga, eniga, yoniga, tepaga, pastga – sarhadsizdir: yoyilaveradi, o‘saveradi, chuqurlashaveradi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “matn cheksizligi” tushunchasi strukturalist Rolan Bart tomonidan ilmga tatbiq qilingan. Ammo barcha strukturalistlar bu borada yakdil deya olmaymiz. Masalan, V. Lotman “Badiiy matn strukturasi” kitobida matnga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlar haqida yoza turib, “matnning cheklanganligi” xususidagi o‘z qarashlarini ilgari suradi. Lotmaning ta’kidicha, har qanday matnda “muqaddima” va “xulosa” mavjud bo‘ladi, bu esa matnning chegaralanganligini ko‘rsatadi [9;14]. Lotman juda kuchli adabiyotshunos olim edi, ammo bu o‘rinda badiiy asar xususiyatlari badiiy matn o‘ziga xosligi bilan bir qadar chalkashtirilgan. Chunki muqaddima, xulosa, epilog, asosiy qism kabilar bu badiiy asarning kompozitsiyasini tashkil qiluvchi unsurlardir. Badiiy matn cheksizligi deyilganda esa matnning hajmi yoki unsurlari emas, balki tarkibida mavjud belgilarning chegarasiz harakati, belgi munosabatlarining son-sanoqsizligi tushunilishi kerak. Matn tarkibidagi belgilar faqat bitta matn doirasi bilan chegaralanmaydi, ular boshqa matn strukturalari tomon to‘xtovsiz intiladi va ulardagi mos belgilar bilan o‘zaro aloqaga kirishadi. Natijada matnlaro bog‘liqlik paydo bo‘ladi va u hech qanday chegarani tan olmaydi. Aslida, matn cheksizligi deyilganda, ayni shu jarayonlar nazarda tutiladi.

5. Badiiy asar turg‘un xususiyatga ega, undagi har bir narsa o‘z joyida qoladi va o‘zgarmaydi. Matn esa to‘xtovsiz, muttasil harakat qiluvchi cheksiz maydondir. Bu esa o‘z navbatida yuqoridagi matn cheksizligi xususiyati bilan xarakterlanadi.

6. Badiiy asarning turg‘unlik xususiyati uning o‘z hududi bilan cheklanishiga sabab bo‘ladi. Badiiy matnning harakati esa faqatgina o‘z maydoni doirasida yuzaga kelmaydi. Balki ayni bir matndagi belgilar boshqa matndagi belgilarning harakatga kelishiga sabab bo‘ladi. Natijada esa bunday matnlar o‘zaro birlashib, intermatn – matnlaro doirani yuzaga keltiradi. Zotan strukturalistik qarashga ko‘ra, adabiyot dunyosida sof, betakror badiiy matn yo‘qdir, chunki qaysidir matnda qo‘llanilgan so‘z, jumla, metafora, qofiya, voqea, nom – xullas, har qanday unsur qachonlardir qayerdadir boshqa bir matnda qo‘llanilgan. Va bu holat abadulabad shu tarzda davom etaveradi, alaloqibat adabiyot dunyosi turfa mato parchalaridan g‘oyat go‘zal va juda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

pishiq tarzda to‘qilgan, eniga ham, bo‘yiga ham cheksizlik sari intilgan o‘lchovsiz gazlamaga – matnlarning metamaydoniga aylanadi.

7. Badiiy asarga bir qatlamlilik xos. Ya’ni an’anaviy tahlil jarayonida qanday hukm chiqarilgan bo‘lsa, barcha davr o‘quvchilari uchun ayni shu hukm yakuniy xulosa bo‘lib qolaveradi. Badiiy matn esa ko‘p qatlamlidir. Ya’ni matndagi belgilar harakat jarayonida yangidan yangi ma’nolarni yuzaga chiqaraveradi. Va bu ma’nolar matn doirasida shunchaki tinch yashamaydi : ular ziddiyatga kirishadi, kurashadi. Bu matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Strukturalizmning yetakchi namoyondasi Rolan Bart ayni shu hodisani chiroyli tasvirlaydi: “Badiiy matn bu bir xil ipdan emas, balki turli-tuman, rang-barang iplardan pishiq va puxta to‘qilgan matodir” [7;245]. Badiiy matnni yakunlovchi xulosaga, yagona tahlilga bo‘ysundirib bo‘lmaydi. Badiiy matn har bir o‘quvchi ongida yangidan kashf qilinadi va o‘quvchidan o‘quvchiga o‘zgarib boraveradi.

8. Badiiy asarda fikr fikr holida qoladi. Badiiy matn uchun esa har qanday fikr belgidir, ya’ni badiiy matn boshdan oxir belgilardan iborat bo‘ladi.

Tahlilning yanada qulayroq bo‘lishi uchun uni jadval ko‘rinishida va soddaroq uslubda taqdim qilamiz:

T/r	<i>Badiiy asar</i>	<i>Badiiy matn</i>
1.	Moddiy – materialistik xarakterda.	Mavhum – idealistik xarakterda.
2.	O‘z muallifiga ega.	Muallifga bo‘ysunmaydi.
3.	Janriy-shakliy o‘ziga xoslikka ega.	Yaxlit bir tizim – strukturadir.
4.	Muayyan chegaraga ega.	Cheksiz, chegarani tan olmaydi.
5.	Turg‘un, o‘zgarmas.	To‘xtovsiz harakatda.
6.	O‘z hududi bilan cheklanadi.	Boshqa matnlar bilan belgilar orqali birlasha oladi – intermatn.
7.	Bir qatlamli	Ko‘p qatlamli (rang-barang ipli mato).
8.	Fikr fikrdir.	Fikr belgidir.

Yuqoridagi farqlardan ko‘rinib turibdiki, har qanday badiiy matn bu oliy darajadagi badiiy asardir, ammo har qanday badiiy asar matn bo‘lolmaydi. Struktural tadqiq ayni shu farqlar asosida chinakam matnni tanlab oladi va uni fazoviy kenglik o‘lchamlarida tahlil qiladi. Milliy adabiyotimizga struktural tahlil nazari bilan

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yondashish bizga asl durdona badiiy boyliklarni saralash, millat tafakkurini shu kabi har tomonlama yetuk asarlar bilan boyitish, ularning zamon va makonga bo‘ysunmasdan abadiy yashay olish imkoniyatini beradi. Struktural analiz doirasida badiiy matn asarning ma’lum adabiy tur, adabiy janrga mansubligini ifodalovchi muayyan ta’rif va mavjud qoliplangan qoidalarga bo‘ysunmaydi, u an’anaviy yondashuvni sindirib tashlaydi. Badiiy matn obraz, janr yoki qandaydir adabiy muammo bo‘yicha tahlil qilinmaydi. Bu matnning hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi. Ayni shu sabab ham mukammal matn barcha zamonlar kitobxonlari tomonidan o‘ziga xos tarzda, har safar yangicha qarash va talqinlar bilan qabul qilinaveradi. Badiiy matn hech qanday qoliplarni tan olmagan sababli makon va zamon uzra cheksizlikda yashayveradi.

Albatta, har qanday badiiy asarni matn sifatida tahlilga tortib bo‘lmaydi, negaki har qanday badiiy asar ham matn talabiga javob berolmaydi. Badiiy asarni matn sifatida baholash yoki baholamaslik faqatgina tahlil jarayonida his etiladi. Matn talablariga javob berolmaydigan asar strukturalizmga **g‘ayrimatn** (matnga tegishli emas, matndan o‘zga) deb ataladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni ayni shu ikki hodisa: badiiy matn va g‘ayrimatn tamoyillari yuzasidan tahlil qilish struktural metodning dolzarb vazifasidir.

Har bir badiiy matn o‘ziga xos chizgilari, takrorlanmas qonuniyatlari vositasida o‘quvchi shaxsiyatini o‘ziga singdirib, u bilan bir butunlikda qayta namoyon bo‘la olishga qodir kichik olamdir. Inson tafakkuri borliqda yashirin ilohiy kuchning mukammal mahsuli ekanligi rad etilmas haqiqatdir, shu sababli bu mukammallik ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan badiiy matn tizimli strukturaning benuqson ko‘rinishi sifatida tadqiq qilinishi g‘oyat o‘rinli. Negaki tizimli aynilik hosilasi ham muayyan tartibga bo‘ysunadi. Badiiy matn – bu murakkab qurilgan ma’no. Strukturaning murakkabligi ma’no murakkabligiga to‘g‘ri proporsionaldir, ya’ni ma’no qanchalar murakkab bo‘lsa, matn strukturasi ham shunchalar murakkab holda shakllanadi. Fikrlarning murakkab oqimi murakkab strukturaga intiladi. 1000 sahifalik badiiy matnni g‘oya va mazmunini saqlagan holda 500 sahifaga kamaytirishimiz mumkindir, lekin ayni shu 1000 sahifani but qilgan strukturani qo‘ldan boy beramiz. Qo‘limizda esa 500 sahifalik oddiy nutq namunasi qoladi, xolos. U holda matndagi murakkablik ya’ni matn strukturasi oddiy nutqdan qanday farq qiladi? Bu o‘rinda oddiy nutqda struktura yo‘q deyishdan mutlaqo yiroqmiz, balki badiiy matnda struktura oddiy nutqqa qaraganda shu qadar murakkab va ayni damda barkamol bo‘ladiki, u o‘z ichiga ham shaklni, ham g‘oyani singdiradi, deya ta’kidlamoqchimiz.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Badiiy matnni to‘qilgan matoga o‘xshatgan Rolan Bart fikrini haqli deb bilgan holda uning bu o‘xshatmasiga yanayam yaqqolroq ifoda qo‘shmoqchimiz: agar badiiy matn puxta va go‘zal to‘qilgan mato bo‘lsa, uning asos uzvini tashkil qilgan iplar shaklining, iplarning rangi esa g‘oyaning istiorasidir. Matoning rang va ip birikuvidan iborat to‘qilish usuli esa matn strukturasi qiyos bo‘la oladi. Fikrimizga kichik bir xulosa yasaydigan bo‘lsak, uni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir:

RANG + IP + TO‘QILISH USULI = MATO

G‘OYA + SHAKL + STRUKTURA = BADIY MATN

Matoning yaratilishida to‘qilish usuli muhim rol o‘ynaydi, ya’ni matoning qalin yoki yupqaligi, chidamliligi ko‘p jihatdan to‘qilish usuliga bog‘liqdir. Xuddi shu kabi badiiy matnning jozibasi, o‘quvchanligi, o‘ziga xosligi aynan strukturaning qanday tashkil qilinganligiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Agarda matn ichidagi biron bir uzvga o‘zgartirish kiritilsa, matndan olib tashlansa yoki yangidan kiritilsa, bu butun boshli matnda aks-sado beradi. Strukturada yuz bergan har qanday o‘zgarish, u xoh katta bo‘lsin, xoh kichik bo‘lsin, badiiy matnning har bir qatlamida namoyon bo‘ladi. Badiiy matn strukturasi sarlavhadan boshlab so‘nggi nuqtaga qadar matnning har bir satridan ham parallel, ham vertikal shaklda o‘tib borib, bir butun tizimga aylanadi. Shu sababdan ham struktural tahlil jarayonida matn tarkibidagi har qanday mayda detal ham alohida e’tiborga olinadi.

Demak, struktural tahlil ilmiy tafakkurning tadrijiy pog‘onasi sifatida adabiyotshunoslikda badiiy asardan badiiy matn sari qadam tashlash uchun asosiy omildir. Adabiyotimizda yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar namunalarini struktur metod orqali tahlil qilish, badiiy matn va matn strukturasi talabiga mos yoki mos emasligini aniqlash ularning jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi doirasida munosib o‘rin egallashi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliyev S. Strukturalizm va struktural tahlil haqida. // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2008, 2-son.
2. Saidova R., Murodov G‘. Badiiy matnda belgi munosabatlari. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 64 b.
3. Rasulov A. Struktura va strukturalizm. – Manba: Rasulov A. Badiiylik – bezavol mezon. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh muharririyati, 2007.
4. Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. – Toshkent: Fan, 2014–136 b.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. - UrDU, 2008 (hammualliflikda)
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent:Sharq, 2004.
7. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. –Москва: Прогресс, 1989. –616 с.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

8. Греймас А.Ж. Структурная семантика. – Москва: Академический проект, 2004. – 368 с.
9. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 371 с.
10. İtalo Calvino. Bir Kış Gecesi Eğer Bir Yolcu.Çev.Eren Yücesan Cendey. İstanbul, Yapı Kredi Yayınları,2008. – 249 sayfa.